



**KOREYSLARNING UZOQ SHARQDAN O'ZBEKISTONGA
DEPORTATSIYASI: TARIXIY SABABLAR, TAQDIR SINOVLARI VA
BARDOSHLILIK TAJRIBASI**

Omonov Azizbek Abdug'opporovich

Nizomiy nomidagi milliy pedagogika universiteti

Talabalarni turar joy bilan ta'minlash bo'limi bosh mutaxassisi.

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada XX asrning birinchi yarmi tarixida yuz bergan koreyslarning Uzoq Sharq hududidan O'zbekistonga ommaviy deportatsiyasi chuqur tarixiy va huquqiy tahlil etiladi. Asarda deportatsiya jarayonining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sabablaridan tortib, uning oqibatlari, ko'chirilgan aholining yangi muhitga moslashuvi, jamiyatda o'z o'rnini topishdagi bardoshlilik, mardlik va irodaviy kuchi ilmiy manbalar va arxiv hujjatlari asosida keng yoritiladi. Maqolada, shuningdek, deportatsiyadan so'ng koreys diasporasining O'zbekistondagi ijtimoiy-madaniy hayotga qo'shgan hissasi, jamiyatga integratsiya jarayoni va hozirgi avlodga o'tgan bardoshlilik tajribasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Koreyslar, deportatsiya, Uzoq Sharq, O'zbekiston, tarix, siyosiy sabablar, ijtimoiy integratsiya, bardoshlilik, diasporalar, madaniy meros, millatlararo totuvlik, tarixiy tajriba, jamiyatga moslashuv.

Koreyaning dastlabki ko'chgan aholisi qattiq taqiqlarga, hatto o'lim jazosi tahdidiga qaramay, 1863-1864-yillardan boshlab Uzoq Sharqqa ko'cha boshladilar. Ular Koreya hukumatining zulmi, qashshoqlik, ocharchilik va yer yetishmovchiligi sababli vatanlarini tark etishga majbur bo'ldilar. 1910 yilda



Koreya Yaponiya tomonidan to'liq anneksiya qilingach, bu mintaqaga koreyslarning ommaviy ko'chishi yanada jadallashdi¹.

1930-yillarda Sovet davlatining Yaponiya bilan chegaradosh hududlari, xususan, Koreya yarim oroli va Xitoy bilan chegaradosh mintaqalar, Yaponiyaning bosqini ostida bo'lgan va beqaror hududlar sifatida baholangan. Sovet siyosiy doiralari o'sha davrda nihoyatda agressiv siyosat yuritgan militaristik Yaponiyaning tashqi siyosat rejalari orasida kelajakda SSSRga hujum qilish niyati borligini yaxshi bilardi.

Shu sababli, sovet hukumati Yaponiyaga josuslik qilishning oldini olish niqobi ostida, Uzoq Sharqning Yaponiya bilan chegaradosh hududlarida yashovchi koreyslarni boshqa mintaqalarga ko'chirish zarurligini ochiq ta'kidlay boshladi. Ayniqsa, 1932-yilda Yaponiyaning Manchjuriyani bosib olishi va 1936-yilda Yevropada fashistik Germaniya bilan SSSRga qarshi Antikomintern paktini imzolashi tez orada SSSR bilan urush boshlanishining aniq belgisi edi.

Aynan shu keskin siyosiy va xalqaro vaziyat Uzoq Sharq koreyslarini Qozog'iston va O'zbekiston hududiga ko'chirish jarayonining iloji boricha qisqa muddatda – 1937-yil dekabriga qadar – amalga oshirilishini taqozo qildi. Bunda deportatsiya jarayonini iloji boricha tezkor va mutlaq maxfiy tarzda o'tkazish talab etilgan.

Ushbu vaziyatda, 1937-yil 21-avgustda Sovet hukumati "Uzoq Sharq o'lkasining chegara hududlarida yashovchi koreys aholisini ko'chirish to'g'risida"gi №1428-326-sonli maxfiy qarorni qabul qildi.

Nafaqat koreys tadqiqotchilari, balki boshqa millatlarga mansub ko'plab olimlar ham koreyslarning Uzoq Sharqdan Markaziy Osiyo hududlariga majburiy deportatsiya qilinishiga faqat yuqorida aytib o'tilgan omil sabab bo'lmaganligini ta'kidlaydilar.

¹ Торопов А.А. «К вопросу о миграции корейского населения на Дальнем Востоке России (1863-1916 гг.)», в сб. Известия Российского государственного исторического архива Дальнего Востока, т. I, Владивосток, 1996.



Darhaqiqat, 1937-yil 24-avgustda SSSR Ichki ishlar xalq komissari (NKVD) N.I. Yejev tomonidan Qozog'iston va O'zbekiston SSR NKVD xalq komissarlariga yuborilgan mutlaqo maxfiy shifrogrammada aniq qayd etilgan edi: koreyslarning ko'chirilishi Uzoq Sharq koreyslarining Yaponiya tomoniga o'tishining oldini olish uchun amalga oshirilishi lozim².

Umuman olganda, deportatsiya juda qisqa muddatda amalga oshirildi, bu esa ko'plab xatolar va kamchiliklarga olib keldi.

Deportatsiya jarayonida minglab qurbonlar bo'ldi. Biroq, deportatsiya bo'yicha tadqiqotlarda insoniy yo'qotishlarga oid turli xil raqamlar keltirilgan bo'lib, bu masalani yanada chuqurroq tahlil qilish va ayniqsa, arxiv hujjatlarini batafsil o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Deportatsiya jarayonida asosiy muammolar orasida tibbiy yordamning yetarli darajada ko'rsatilmagani va ko'chirilgan hududlarda uy-joy ta'minotining yetishmovchiligi alohida ajralib turadi.

Turli olimlar Markaziy Osiyoga ko'chirilgan koreyslar orasidagi qurbonlar soni borasida turlicha ma'lumotlar keltiradilar. Bu farqlar asosan tadqiqotchilarning 1939 va 1959 yillarda o'tkazilgan Butunittifoq aholi ro'yxatlari ma'lumotlariga asoslanib xulosa chiqarganliklari bilan bog'liq³.

1937-yil 15-noyabr holatiga ko'ra, O'zbekistonga majburan ko'chirilgan koreyslar quyidagi hududlarga joylashtirilgan edi:

Toshkent viloyati:

Yuqorichirchiq tumani – 11 932 kishi

Chirchiq tumani – 8 669 kishi

O'rta Chirchiq tumani – 1 814 kishi

Mirzacho'l tumani – 6 975 kishi

² Постановление Политбюро ЦК ВКП(б) «О корейцах». 21 августа 1937 г.// Лубянка. Сталин и Главное управление госбезопасности НКВД. Архив Сталина. Документы высших органов партийной и государственной власти. 1937-1938. - М.: МФД, 2004, стр. 325-326 // АП РФ. Ф. 3. Оп. 58. Д. 139. Л. 1-2. Подлинник. Машинопись. // РГАСПИ Ф.17, Оп.166, Д.578 Л.29-32.

³ Тен М.Д. Корейцы СНГ: от общей истории к единому этнокультурному сообществу евразийских корейцев // Идеи и Идеалы. Проблемы национального дискурса. № 1(31), - Т. 2, 2017. - С. 35-50.



Bekobod tumani – 4 438 kishi

Chinoz tumani – 2 746 kishi

Qoraqalpog'iston va Xorazm hududlari:

Qo'ng'iro't tumani – 2 746 kishi

Gurlan tumani – 5 799 kishi

Shaharlar bo'yicha:

Samarqand – 1 798 kishi

Buxoro – 399 kishi

Farg'ona – 1 104 kishi

Qo'qon – 1 700 kishi

Namangan – 1 269 kishi

Andijon – 1 928 kishi⁴.

Ushbu ma'lumotlar koreyslarning O'zbekistonga joylashtirilishidagi hududiy taqsimotini aks ettirib, deportatsiyaning keng ko'lamli va tartibli tarzda amalga oshirilganini ko'rsatadi.

1937-yil dekabrda kelib, deportatsiya natijasida quyidagi ko'rsatkichlar qayd etilgan:

Qozog'iston SSRga – 20 170 ta oila yoki 95 526 kishi ko'chirildi.

O'zbekiston SSRga – 16 272 ta oila yoki 76 525 kishi joylashtirildi⁵.

Koreyslarning Qoraqalpog'istonga joylashtirilishidagi muammolar

1937-yil noyabr oyida boshlangan noqulay ob-havo sharoiti va Orol dengizi hamda Amudaryo orqali suv yo'llaridan foydalanishning imkonsizligi sababli, dastlab Qoraqalpog'iston ASSRga ko'chirilishi rejalashtirilgan 2 300 ta koreys oilasining faqat 1 383 tasi (6 826 kishi) ushbu hududga joylashtirilgan. Qolgan qismi esa Namangan viloyatiga ko'chirildi⁶.

⁴ Маткаримова С. Абдуллаева Н. История депортации и размещения корейского населения в Республике Узбекистан. «Хоразм-Марказий Осиё цивилизацияси тизимида» мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Урганч 27-29. 04.2023. 398 б.

⁵ Сталинские депортации. 1928-1953 / Под общ. ред. акад. А.Н. Яковлева; Сост. Н.Л. Поболь, П.М. Полян - М.: МФД: Материк, 2005. - С. 82.

⁶ Джумашев А.К истории депортации дальневосточных корейцев в Каракалпакстан (1937-1938 гг.). // Известие корееведения Казахстана. 2002, вып.9, стр.19-23.



Umuman olganda, Qoraqalpog'iston ASSRning yangi O'zbekiston tarkibiga qo'shilgan hududlarida jami 7 347 koreys joylashtirilgan⁷.

Shu yilning o'zida sovet hukumati koreyslarni Markaziy Osiyoga ko'chirish bo'yicha yana o'nga yaqin qo'shimcha qarorlar qabul qilgan. Bu qarorlar deportatsiya jarayonini yanada tizimli va keng ko'lamda amalga oshirishga qaratilgan edi.

Sovet hukumati tomonidan rejalashtirilgan koreyslarning deportatsiyasi yuqoridan pastgacha qat'iy nazorat ostida amalga oshirildi. Maxfiy qaror va shifrogrammalar asosida boshlangan bu operatsiya texnik va tashkiliy jihatdan ham puxta tayyorlangan edi. Deportatsiyaga tayyorgarlik jarayonida koreys oilalariga o'z yuklarini yig'ishtirish uchun juda qisqa muddat — ba'zida bir necha soatgina vaqt berilgan. Shundan so'ng, ular oldindan belgilangan punktlarga yetkazilib, maxsus tayyorlangan literli (maxsus tartibda yuradigan) deportatsion eshelonlarga yuklangan.

Har bir eshelon qat'iy jadval asosida harakatlanib, belgilangan vaqtda aniq ko'rsatilgan stansiyadan jo'natilgan. Eshelonga boshliq tayinlangan bo'lib, unga vagonlargacha bo'lgan ichki tartibni nazorat qiluvchi, ishonchli koreyslar orasidan tanlab olingan “vagon kattalari” bo'ysungan. O'rtacha bir eshelon 50 ta “odam tashiydigan” vagon, bir yo'lovchi vagoni (“klassniy”), bitta tibbiy vagon, bitta oshxona vagoni, 5–6 ta yopiq yuk vagonlari va 2 ta ochiq platformadan iborat bo'lgan.

Aslida “odam tashiydigan” deb atalgan vagonlar oddiy tovar vagonlari bo'lib, ikki qavatli naralar va pech (burjuylka) bilan jihozlangan edi. Har bir bunday vagonda 5–6 ta oila, ya'ni 25–30 kishi birgalikda yashashga majbur bo'lgan. Sayohat vaqtida sharoitlar og'ir bo'lib, yo'lovchilar 30–40 kun davomida to'xtovsiz tarzda harakatlanadigan eshelonlarda yashagan. Bu uzoq safar davomida tibbiy xizmatning sustligi, oziq-ovqat va toza suv yetishmovchiligi ko'plab muammolarga olib kelgan.

⁷ O'sha joyda



Faqat 1993-yilda ushbu masala bo'yicha tarixiy adolat tiklana boshlandi. Avval Rossiya Federatsiyasida, keyinroq esa O'zbekiston va Qozog'iston Oliy Kengashlari qaroriga muvofiq, koreyslarning majburiy deportatsiyasi noqonuniy deb tan olindi va koreys diasporasi vakillari reabilitatsiya qilinganligi e'lon qilindi.

Koreyslarning O'zbekistonga majburiy ko'chirilishi o'z davrining murakkab siyosiy, iqtisodiy va geostrategik sharoitlaridan kelib chiqqan. Jarayon o'ta qisqa vaqt ichida va maxfiy tarzda amalga oshirilganligi sababli ko'plab muammolar, xususan uy-joy, tibbiy yordam va oilalarning ajralishi kabi og'ir oqibatlariga olib keldi. Shunga qaramay, koreyslar o'zlarining mehnatsevarligi, sabr-toqati va ijtimoiy moslashuvchanligi orqali yangi jamiyatga tezda integratsiyalasha oldilar. Ularning qishloq xo'jaligi, qurilish, ovqatlanish madaniyati va ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli hissa bo'lib qo'shildi. Shu bilan birga, koreys diasporasi o'z milliy madaniyati, urf-odatlari va tilini asrab-avaylab, o'zbek jamiyatining ajralmas qismiga aylanishga muvaffaq bo'ldi. Faqat 1990-yillardan boshlabgina bu xalq boshidan kechirgan tarixiy adolatsizliklar tan olinib, ular rasmiy ravishda reabilitatsiya qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Торопов А.А. «К вопросу о миграции корейского населения на Дальнем Востоке России (1863-1916 гг.)», в сб. Известия Российского государственного исторического архива Дальнего Востока, т. I, Владивосток, 1996.
2. Постановление Политбюро ЦК ВКП(б) «О корейцах». 21 августа 1937 г.// Лубянка. Сталин и Главное управление госбезопасности НКВД. Архив Сталина. Документы высших органов партийной и государственной власти. 1937-1938. - М.: МФД, 2004, стр. 325-326 // АП РФ. Ф. 3. Оп. 58. Д.



139. Л. 1-2. Подлинник. Машинопись. // РГАСПИ Ф.17, Оп.166, Д.578 Л.29-32.

3. Тен М.Д. Корейцы СНГ: от общей истории к единому этнокультурному сообществу евразийских корейцев // Идеи и Идеалы. Проблемы национального дискурса. № 1(31), - Т. 2, 2017. - С. 35-50.

4. Маткаримова С. Абдуллаева Н. История депортации и размещения корейского населения в Республике Узбекистан. «Хоразм-Марказий Осиё цивилизацияси тизимида» мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Урганч 27-29. 04.2023. 398 б.

5. Сталинские депортации. 1928-1953 / Под общ. ред. акад. А.Н. Яковлева; Сост. Н.Л. Поболь, П.М. Полян - М.: МФД: Материк, 2005. - С. 82.

6. Джумашев А.К. истории депортации дальневосточных корейцев в Каракалпакстан (1937-1938 гг.). // Известие корееведения Казахстана. 2002, вып.9, стр.19-23.

\\